

## HAMKORLIK TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA DIZARTRIYALI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR

**Raxmatova Dilnavoz a'zam qizi**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya** *Hamkorlikka asoslangan talim – bu ta'lim jarayonini nisbatan samaraliroq tashkillashtirishga qaratilgan bo'lib, bolalarning savodxonligini oshirish bevosita maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlanganligi sababli, aynan maktabgacha ta'lim tashkilotida kooperativ ta'limning ba'zi bir elementlaridan foydalanish mumkinligi yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim, hamkorlik, texnologiyalar, metodika, axborot, jamoa, tarbiya, nutq, topshiriq, imkoniyat, qarsak, musiqa, yuklama*

**Аннотация** *Кооперативное обучение направлено на более эффективную организацию образовательного процесса, а поскольку повышение грамотности детей начинается непосредственно в организации дошкольного образования, поясняется, что именно в организации дошкольного образования могут быть использованы некоторые элементы кооперативного образования.*

**Ключевые слова:** *образование, сотрудничество, технологии, методология, информация, команда, обучение, речь, задание, возможность, аплодисменты, музыка, скачать*

**Abstract** *Cooperative education is aimed at organizing the educational process more effectively, and since the improvement of children's literacy begins directly in the preschool education organization, it is explained that it is in the preschool education organization that some elements of cooperative education can be used.*

**Key words:** *education, cooperation, technologies, methodology, information, team, training, speech, assignment, opportunity, applause, music, download*

**Hamkorlikka asoslangan talim** – bu ta'lim jarayonini nisbatan samaraliroq tashkillashtirishga qaratilgan bo'lib, bolalarning savodxonligini oshirish bevosita maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlanganligi sababli, aynan maktabgacha ta'lim tashkilotida kooperativ ta'limning ba'zi bir elementlaridan foydalanish mumkin bo'ladi.



Hozirda biz haddan tashqari keng axborot makonida yashayapmiz, bunday vaqtda mavjud ma'lumotlar har daqiqada yangilanib turishini unutmaslik kerak. Shu sababdan agarda hozirgi zamon tarbiyachisi yoki pedagogi bolalar uchun asosiy axborot manbai sifatida an'anaviy pedagogning rolini o'z zimmasiga oladigan bo'lsa, u holda pedagog yuklamalarga bardosh bera olmasligi mumkin. Chunki, insoniyat Internet, Google, Rambler va Yandex kabi turli qidiruv tizimlari yohud kuchliroq axborot manbalari xizmatidan foydalanish imkoniyatiga egadir.

**Kooperativ ta'lim quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- jamo'a tarkibida ishlash (birgalikda, bir-birini xabardor qilgan holda ishlash);
- bilim, ko'nikma va malaka darajasidan qat'iy nazar samarali o'qitish;
- ta'lim jarayonida har bir ishtirokchining maksimal bandligini ta'minlash;

Albatta ta'lim jarayonida, mashg'ulotlarda bolalar bir necha daqiqa davomida ma'lumotni samarali idrok etishlari va eslab qolishlari mumkin, keyin ularning e'tibori tabiiy ravishda asta sekinlik bilan susayib borishini ham hisobga olish lozim. Shuning uchun ta'lim jarayonini bolalarning e'tiborini doimiy ravishda jalb etish orqali shunday muvofiqlashtirish juda muhim hisoblanadi. Biror bir material yoki predmetni harakatlantirish va diqqatni jamlash imkonini beruvchi tuzilmalardan foydalanish bolalar e'tiborini jalb etishga yaxshi yordam beradi. Ushbu tuzilmalarda jamoani shakllantirish (Teambuilding) va sinfni shakllantirish(Classbuilding)da ham foydalanish mumkin.

**Jamoani shakllantirish (Teambuilding)** - bu turli xil kelib chiqishi va tajribalariga ega bo'lgan 4 kishidan iborat guruh o'zaro hamkor va bir-biriga g'amxo'r jamoaga aylanadigan jarayondir. Jamoani shakllantirish (qurish) vaqtni chog' qiladigan ko'ngilochar va qiziqarli jarayon bo'lib, haftasiga 2 marta o'tkazilishi mumkin.

**Guruhni shakllantirish (Classbuilding)** - bu turli xil kelib chiqishi va tajribalariga ega bo'lgan bitta xonaga jamlangan ko'p sonli shaxslarning o'zaro hamkor va bir-biriga g'amxo'r jamoaga aylanadigan jarayondir. Guruh shakllantirish (qurish) jarayoni- bu butun sinf yoki guruh bilan ishlashni o'z ichiga oladi. O'yin-kulgi va vaqtni chog' qiluvchi jarayon sifatida uni haftada 1-2 marta o'tkazilsa, o'quv maqsadidagi mashg'ulotlar uchun – zaruratga qarab tez-tez qo'llash mumkin.

**“Jimjitlik signali”**

**(High Up! - yuqoriga! - Qo'lingizni ko'taring!)**

Guruh yoki sinfda tinchlik (sukunat) o'rnatish juda muhimdir. Buning uchun qandaydir signaldan foydalanish qulay. Masalan, qo'lingizni ko'taring.

Partalarni joylashtirish:

- jarayon boshlanishidan oldin bolalar o'tirishi uchun joy tayyorlash kerak;



- partalar raqamlab chiqiladi;
- partalarni quyosh nurlari shaklida joylashtirish zarur.

### **JAMOANI SHAKLLANTIRISH (TEAMBUILDING)**

Jamoalarni shakllantirishda:

Hech qachon jim (tek) turmaydigan va tez-tez bezovta bo'ladigan bolalarni bir joyga qo'ymang;

- ular o'rtasida ziddiyat yuzaga kelmasligi kerak;
- bolalarning jinsi ham hisobga olinishi kerak.

Sinfdagi o'quv jarayoni samarali bo'lishi uchun bolalarni jamoalarga qanday taqsimlash kerakligini o'ylab ko'ring?

Masalan, biz "MIX PEA SHEA" yoki "MIX FREEZE GROUP" dan foydalanamiz.

**MIX PEA SHEA** – sinfdagi bolalarni musiqa yordamida tasodifiy aralashtirish, musiqa tugashi bilan tasodifiy juftlikni shakllantirish va mavzuni qisqa javoblarda yoki to'liq muhokama qilish. **MIX FREEZE GROUP** - o'quvchilarni musiqa yordamida aralashtirish, u to'xtaganda, ular muzlashadi va guruhlar tuzishadi, ularning soni berilgan savolning javobiga bog'liq bo'ladi.

### **"TURLI UMUMIY JIHATLAR"**

Tarbiyachi, har bir ishtirokchi birinchi navbatda o'zi haqida o'ylashi kerakligini tushuntiradi, masalan, nima qilishni yaxshi ko'radi, so'ngra tarbiyalanuvchi buni hammaga aytishi kerak. Agar 2-, 3- va 4-ishtirokchilar ham bu ishni qilishni yoqtirsa, u holda 3-chi ishtirokchi o'rtaga yozadi, agar hamma rozi bo'lmasa, 1-raqam ostida yozadi. Keyin 2-chi ishtirokchi aylana bo'ylab javob beradi va hokazo. Ushbu jarayon uchun o'quvchilarga ma'lum vaqt berilishi kerak.

Natijada, har bir guruh barcha ishtirokchilarni birlashtiradigan o'z ro'yxatiga ega bo'ladi. Ushbu ro'yxatga asoslanib, ishtirokchilar nom topishlari va jamoani shakllantirishlari kerak - bu ishtirokchilar qaysidir bosqichda bir vaqtning o'zida birlashishi va tananing biror bir qismiga teginishi kerak bo'lgan harakatdir.

Zamonaviy pedagog qanday fazilatlariga ega bo'lishi kerak?

Sizga tavsif beradigan bitta so'zni tanlang.

Insonlarning qaysi fazilatni ko'proq qadrlaysiz?

### **"MIX-PAIR-SHARE"**

**("aralashing - juftingizni toping -gaplashing")**

Bolalar xonada harakatlanayotganda raqsga tushishadi. Tarbiyachi e'lon qiladi: "Juftlar" bolalar o'zlariga eng yaqin bo'lgan sherigiga yaqinlashib "beshni tashashadi"(qo'llarini ko'tarib, kaftini sherigining kaftiga urib qarsak chaladi) va juftlashadilar. Juftlanmagan bolalar bir-birlarini topish uchun qo'llarini ko'taradilar.



Pedagog savol beradi va o'ylash uchun 3-5 soniya vaqt beradi. Bolalar o'z sheriklari bilan "Timed-Pair-Share" yoki "rallyrobin" yordamida ma'lumot almashishadi.

### **"RALLY ROBIN"**

Pedagog bir necha javob varianti yoki yechimlarga ega bo'lgan muammoni o'rtaqa tashlaydi va o'ylash uchun vaqt beradi. Bolalar navbatma-navbat javoblar va yechimlarni topishadi.

O'ylab ko'ring, qanday qilib boshqa odamni xursand qilishingiz mumkin?

Biz yelkama-yelka sheriklar bilan juftlikda ishlaymiz. A guruhi a'zolari boshlaydi.

Bir-birimizga minnatdorchilik bildiramiz: A guhdagi sheriklar o'zingizga yelkadosh bo'lgan sherigingizga: "Katta rahmat, men sizning maslahatingizdan albatta foydalanaman!" deb ayting Endi yonidagi boshqa sherik unga javob beradi: "Menga sizning g'oyalaringiz juda yoqdi, qachonlardir men ulardan foydalanaman!"

### **"TIMED-PAIR-SHARE"**

Bu "Rally Robin" dan farq qiladi, chunki savol uzoq javobni talab qilganligi sababli, har bir bolaga javob berish uchun ma'lum vaqt beriladi.

Pedagog mavzuni nomlaydi, so'ngra har bir bola qancha vaqt davomida ma'lumot almashishini e'lon qiladi va o'ylash uchun vaqt beradi. Shundan so'ng o'yinni kim boshlashini e'lon qiladi.

Masalan:

- kimning kiyimlarida tugmalari eng ko'p bo'lsa o'sha boshlaydi;
- kimning sochlari shiftga yaqinroq bo'lsa;
- kimning kafti kattaroq bo'lsa;
- kimning ko'zlari yorqinroq bo'lsa va hokazo.

Bolalar bir-birlariga minnatdorchilik bildirib rahmat aytishadi:

"Bu ma'lumotni men bilan baham ko'rganingiz uchun rahmat", "Men sizni tinglaganimdan zavq oldim!", "Menga sizni tinglash yoqdi, chunki...", "Sizni tinglash orqali men buni bilib oldim..." Va hokazo.

Tuzilmalarni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- jarayonga barcha ishtirokchilar jalb qilinishi kerak;
- tarbiyachi har doim o'quvchilarning qanchalik to'g'ri javob berishini tekshirishi va topshiriqni bajargandan keyin ovoz chiqarib javob berishlarini so'rashi mumkin;
- tuzilmalar har bir bolaga fikr bildirish va boshqalardan minnatdorchilik olish imkoniyatini beradi, albatta bu bolalar uchun juda muhimdir;
- bunda bolalar bir-biriga biror narsani o'rgatishi va o'zlari ham biror narsani o'rganishlari mumkin.

### **"Cheers" ("Minnatdorchilik izhor etamiz!")**





1. "Mushaklar(feयरverklar)"
2. "a'lo"
3. "Qarsaklar"
4. "High-five!" ("Beshni tasha!" Yoki "Beshni ol")
5. Ertalabgi mashq:
  - Salom do'stim! (qo'llarni yon tomonga ochgan holda)
  - Qalaysan endi? (qulog'ini ushlagan holda)
  - Qayerda eding? (yelkasini ushlagan holda)
  - Men seni sog'indim (qo'llarini ko'ksiga qo'ygan holda)
  - Nihoyat sen kelding! (qo'llar yon tomonga ochgan holda)Yaxshi! (quchoqlashishadi)

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Гершунский Б.С. Философия образования для XXI века (в поисках практико-ориентированных образовательных концепций) / Б.С. Гершунский. - М.: Совершенство, 1998. - 608 с.
2. Татур, Ю.Г. Образовательный процесс в вузе. Методология и опыт проектирования: учеб. Пособие / Ю.Г. Татур. - М.: МГУ им. Н.Э. Баумана, 2005. - 224 с.
3. Маркова А.К. Психология труда учителя: книга для учителя / А.К. Маркова. - М.: Просвещение, 1993. -192 с.
4. Леонтьев, А.Н. Деятельность и личность. Формирование личности / А.Н. Леонтьев // Психология личности. Т. 2. Хрестоматия. - Самара: Бахрах, 1999. - С. 165 - 196.
5. Рубинштейн, С.Л. Основы общей психологии / С.Л. Рубинштейн. -спб. : Питер Ком, Серия «Мастера психологии». 1998. - 688 с.
6. Чичерина Я., Нуркельдиева Д., Бондарева Е. Инновационные подходы в подготовке кадров-дефектологов. – Т.: ТГПУ, 2014. – 235 с.
7. Asqarov, D. (2022). Mukhammas form in the lyrics of Uvaysi. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(09), 5-9.
8. Аскарлов, Д. (2022). Uvaysiy lirikasida muxammas shakli. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(2), 27-31.
9. MUXAMMASI, D. A. A. N. Academic research in educational sciences. 2023. Noconference Proceedings, 1.



10. Asqarov, D. (2024). MUKHAMMAS IN THE LYRICS OF THE RULING POETS. *American Journal of Philological Sciences*, 4(02), 46-52.
11. Asqarov, D. (2024). AMIRIY MUXAMMASLARIDA QOFIYA. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(18), 39-42.
12. Askarov, D. (2022). IN PARTICULAR OF AMIRY'S COMPOSITION OF NAVAI'S GHAZAL.
13. Asqarov, D. (2024). MUXAMMASLARDA BADIY SAN'ATLAR. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 3(2), 137-139.
14. Asqarov, D. (2023). AMIRIYNING NAVOIYGA MUXAMMASI. *Academic research in educational sciences*, 4(Conference Proceedings 1), 101-105.
15. Asqarov, D. (2024). ISTIQLOL DAVRI QO 'QON ADABIY MUHITIDA MUXAMMAS. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(26), 196-201.
16. Askarov, D. (2024, September). DIRECT GENRES OF LITERATURE AND LITERARY CRITICISM. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 23, pp. 83-85).
17. N. Q.Abidova *Autizm spektrli bolalarni o'qitish va tarbiyalash/o'quv qo'llanma*. Toshkent – 2023 y.
18. Qutbiddinov A. N. THE TECHNOLOGY OF FORMING GEOMETRIC CONCEPTS IN PRIMARY CLASS STUDENTS WITH INTELLECTUAL DEFECTS BASED ON THE INNOVATION IDEA // "INTEGRATION CLUSTER" ON THE BASIS OF INTERDISCIPLINARY RELATIONSHIPS." *International Scientific and Current Research Conferences*. – 2022.
19. Qutbiddinov A. N. THE TECHNOLOGY OF FORMING GEOMETRIC CONCEPTS IN PRIMARY CLASS STUDENTS WITH INTELLECTUAL DEFECTS BASED ON THE INNOVATION IDEA" "INTEGRATION CLUSTER" ON THE BASIS OF INTERDISCIPLINARY RELATIONSHIPS // *International Scientific and Current Research Conferences*. – 2022. – C. 241-247.
20. Abidova, N. K. (2023). Psychological and pedagogical study of children with autism. *Oriental Journal of Education*, 3(03), 61-65.
21. Qutbiddinov, A. N. (2022). Technology of forming geometric concepts in primary class students with intellect defects on the basis of" integration Cluster". *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 6461-6466.



22. Nazokat, A. (2023). Autizm spektri buzilgan o'quvchilarning bilish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 412-415.
23. Abidova, Nazokat. "Positive effects of formation of knowledge, skills and skills on the basis of interdisciplinary relations." *Academica: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.3 (2021): 2505-2510.
24. Qutbiddinova, A. N. (2024). AUTIZM SPEKTORLI BOLALARDA IJTIMOIIY-MAISHIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH: doi. Org/10.5281/zenodo.10555394. *ILM-FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI*, 1(1).
25. Obidova, B., & Abidova, N. Q. (2023). RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALAR LUGAT BOYLIGINI RIVOJLANTIRISH. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 417-419.
26. Abdupattayeva, D., and N. Q. Abidova. "IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI INKLUZIV TA'LIMGA KIRITISH UCHUN ULARNING OTA-ONALARINI TAYYORLASH YO'LLARI." *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 758-760.
27. No'monjonova, R., & Abidova, N. Q. (2023). IMKONIYATI CHEKLANGAN YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 448-450.
28. Sharobidinova F., Abidova N. Q. AUTIZMGA EGA BOLALARNI PSIXOLOGO-PEDAGOGIK O'RGANISH //QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – C. 761-763.
29. Ubaydullayeva M., Abidova N. Q. O'ZBEKISTONDA AQLI ZAIF BOLALARNI ERTA TASHXIS QILISH MUAMMOLARI //QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – C. 764-766.

